

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025 yil yanvar-mart oylari uchun


- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirdorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025 yilning 1 aprel holatiga ko'ra viloyatda 5819 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 989 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,0 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 963 tasi (16,5 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 749 tasi (12,9 %) kiyim ishlab chiqarishga,

476 tasi (8,2 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 461 tasi (7,9 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 aprel holatiga ko'ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 11 467,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,4 % ni tashkil etdi.


	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	11 467,7	107,4
<i>shaxar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	2 777,4	103,4
Qo'qon shahri	1 862,1	108,1
Quvasoy shahri	370,9	108,1
Marg'ilon shahri	448,1	108,6
Oltiariq tumani	257,1	107,2
Qo'shtepa tumani	546,5	107,4
Bog'dod tumani	276,6	106,4
Buvayda tumani	343,7	109,8
Beshariq tumani	311,5	109,2
Quva tumani	146,0	93,6
Uchko'prik tumani	955,5	108,4
Rishton tumani	113,4	101,2
So'x tumani	33,6	108,1
Toshloq tumani	461,2	101,8
O'zbekiston tumani	292,6	102,4
Farg'ona tumani	466,3	108,4
Dang'ara tumani	305,8	106,7
Furqat tumani	148,6	104,6
Yozyovon tumani	88,3	107,8
Mavzuga doir ko'rsatkichlar:		
<u>Sanoat ishlab chiqarish hajmlari (oylik)</u>		
<u>Sanoat ishlab chiqarish hajmlari (yillik)</u>		

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona shaxrida (8 436,3 ming so'm), Qo'qon shahrida (5 924,8 ming so'm), Uchko'prik tumanida (3 859,9 ming so'm), Quvasoy shahrida (3 587,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 761,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buvayda tumanida (107,4 %), Beshariq tumanida (107,3 %), Marg'ilon shaharda (106,8 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-mart oylarida**



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025 yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 10 671,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (93,1 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 37,9 mlrd so'm (0,3 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 668,8 mlrd so'm (5,8 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 89,8 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025 yilning yanvar-mart oylarida**



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025 yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 39,4 ming tonna avtomobil benzini (2024 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 36,5 % ga kamaygan), 37,6 ming tonna ip kalava (24,7 % ga ko'paygan), 243,4 ming litr aroq mahsulotlari (142,7 % ga ko'paygan) hamda 94,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (5,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Paxta tolasi, tonna	19 884,5	30 385,6	27 008,9
Paxta urug'lari, tonna	35530,5	40585,0	33944,5
Avtomobil benzini, ming t	91,3	78,9	39,4
Dizel yoqilg'isi, ming t	93,7	100,1	60,5
Ko'mir, ming t	24,0	28,3	11,4
Neft bitumi, ming t	12,3	7,7	6,6

Portlandsement, ming t	103,5	94,5	88,4
Sement klinkrlari, ming t	27,2	24,8	17,8

*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 13,9 % (2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,1 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,5 % (2024 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024 yilning yanvar-mart oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,1 % (11,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,8 % (25,4 %), quyi texnologiyali 56,3 % (55,9 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025 yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 108,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 106,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	85,4	82,5	88,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	379,9	379,9	403,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 87,7 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 45,2 % ga ko'payish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 0,8 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023 yil yanvar-mart*	2024 yil yanvar-mart*	2025 yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	4,0	9,3	13,5
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	4,7	9,8	6,9
To'qimachilik chiqindilari, ming t	0,0	4,4	8,2

*2023-2024 yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 5 087,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 52,2 % ni tashkil etdi. 2024 yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes sub'ektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 51,5 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi



ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalarini. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiyl-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
O.Komilov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

